Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

“OTELLO” – RASHK SOYASIDAGI ISHQ

Raxmatova Bahora Shodiyor qizi
Sharof Rashidov nomida Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
filologiya va tillarni o‘qitish
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **dotsent, (PhD) M.J. Xasanova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.22998560

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur ingliz yozuvchisi Uliyam Shekspirning “Otello” tragediyasidagi qahramonlarning qay darajada gavdalantirilganligi, ular o‘rtasidagi konfliktning yuqori cho‘qqiga ko‘tarilganligi, fojia motivining ustunligi va xarakter xususiyatlari tahlil qilinadi. Asardagi fojia boshqa asarlaridan farqli o‘laroq, insonning iroda kuchi va qonuniyatlarini anglash, aynan kelajakda sodir bo‘ladigan noxush hodisalardan ogohlik berishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan.
Kalit so‘zlar: Otello, Dezdemona, Yago, xiyonat, tragediya, isyon, yechim, ishonch, fojia, o‘lim, ro‘molcha, qurol.

«ОТЕЛЛО» — ЛЮБОВЬ В ТЕНИ РЕВНОСТИ

Аннотация: В статье анализируются образы персонажей трагедии знаменитого английского писателя Уильяма Шекспира “Отелло”, эскалация конфликта между ними, преобладание трагического начала и их личностные характеристики. В отличие от других произведений автора, данная трагедия исследует человеческую волю и природу событий, одновременно служа предостережением от возможных пагубных последствий в будущем.
Ключевые слова: Отелло, Дездемона, Яго, предательство, трагедия, бунт, развязка, доверие, катастрофа, смерть, платок, оружие.

“OTHELLO” – LOVE IN THE SHADOW OF JEALOUSY

Abstract: This article analyzes the characterization of the figures in the famous English writer William Shakespeare’s tragedy “Othello”, the escalation of the conflict between them, the predominance of the tragic motif, and their character traits. Unlike his other works, the tragedy in this play aims to explore human willpower and the nature of events, while serving as a warning against the adverse occurrences that may unfold in the future.
Keywords: Othello, Desdemona, Iago, betrayal, tragedy, rebellion, resolution, trust, catastrophe, death, handkerchief, weapon.

KIRISH

Buyuk dramaturg Uilyam Shekspir tomonidan 1603-yilda yozilgan deb taxmin qilinadigan va 1604-yilning 1-noyabr kunida ilk bor sahnalashtirilgan “Otello” tragediyasi haqida ko‘pchilik adabiyot muxlislari eshitib ulgurgan. “Otello” tragediyasi ilk bor 1940-yilda G‘. G‘ulom tomonidan M.

Lozenskiy tarjimasidan foydalangan holda, rus tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Bokachchoning shogirdi bo‘lmish Jiraldo Chintioning “Venetsiya Mavri” asari asosida yozilgan “Otello” tragediyasi hanuzgacha qadr-qiymatini yo‘qotmay kelayotgan asardir.

Tahlil va natijalar

Qallobmi yoki daho? Shekspirni hatto o‘z davrida ham ko‘chirmakashlikda ayblagan kishilar bo‘lgan. Bundan tashqari, bir necha asrlar o‘tsa-da, Shekspir ijodi atrofidagi bahs-munozaralar o‘z yakunini topmadi, va hattoki o‘z davrining buyuk yozuvchilari ham bu bahslarga aralashib, o‘z munosabatlarini bildirdi. Ba’zilar uning asarlarini haddan ziyod maqtashsa, boshqalar bu asarlar ortiqcha e’tiborga arzimaydi va ularning mashhurligi bo‘rttirilgan, deb hisoblaydi. Taniqli shoir Pushkin o‘z yozgan maktublarining birida Shekspir va uning asarlari haqida: “Hodisaning rostgo‘yligi va dialogning chinligi – mana tragediyaning haqiqiy qonuni… Men Kalderonni ham, Vegani ham o‘qigan emasman, biroq Shekspir, bu qanchalar hayratda qoldiradigan inson! Hayajondan haligacha o‘zimga kelolmayman! Bayron tragik sifatida unga tenglasha olmaydi”, degan maqtov fikrlarni bildirgan bo‘lsa, Shekspirning keskin tanqidchilaridan biri bo‘lgan Tolstoy “Men Shekspir asarlarini o‘qib, o‘zim kutgan estetik zavqni topmadim”, deb yozadi va uning asarlarini tanqid qilib, bir nechta maqolalar bitadi. Yozuvchilar o‘rtasidagi bu kabi ixtiloflar hali ham o‘z yechimini topmagan va munozaralar hanuz davom etib kelmoqda. Demak, kitobxon Shekspirning buyuk yoki aksincha, oddiy yozuvchi ekani to‘g‘risidagi qat’iy fikrga kelishi uchun uning barcha asarlarini o‘qib chiqishi va shundan so‘nggina ularga baho berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. San’atdagi yaratuvchanlik asarning umrboqiyligiga xizmat qiladi. Shekspirga xos yaratuvchanlik va tasvir asarlarining o‘z ta’sir kuchini saqlab qola olishiga sabab bo‘la oldi. Hech qachon eskirmaydigan va bir-biridan farqli bo‘lgan irqchilik, muhabbat, rashk, xiyonat, qasos va afsus-nadomat kabi turli mavzularga bag‘ishlangan, insoniy tuyg‘ular va munosabatlarning achchiq taqdirini tasvirlaydigan “Otello” tragediyasi bugungi kunda ham professional teatr sahnalarida namoyish etiladigan asosiy asarlardan biri bo‘lib, ko‘plab opera, film va adabiy asarlar uchun manba vazifasini o‘tab keladi. Bu tragediya Shekspirning boshqa sahna ko‘rinishlaridan farqli ravishda o‘rta asrlarga oid davrlar hamda turli ins-jinslar yoki ruhlar haqida so‘zlamaydi, aksincha, XVI asrdagi voqealarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ham Shekspir asarlari ichida o‘z davriga eng yaqin asar ayni shu “Otello” tragediyasidir. Asar odamlarning ichki his-tuyg‘ulari va ijtimoiy bosimlar ta’siri ostida qanday qilib to‘g‘ri yo‘lni yo‘qotib qo’yish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu qahramonlar o‘z maqsadlariga erishish uchun qanchalik past nazoratga ega bo‘lishlari mumkinligini ochib beradi.

Otello asarning markaziy qahramoni, mavr millatiga mansub jasur va mard sarkarda. U hurmatli general, lekin xotini Dezdemona va unga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi bilan jiddiy muammolarga duch kelgan, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishda qiynalgan va oxir oqibat o‘zini ham, seviklisini ham yo‘qotishga olib keladigan xatolar qilgan obraz.

Dezdemona Otello qoshida hurmatga sazovor, lekin noxush voqealar davomida o‘zini himoya qila olmagan, poklik va fioyilik namunasi sifatida berilgan, beg‘uborlik va sadoqat timsolidir. Yago esa Otelloning yordamchisi, lekin asarning asosiy antagonistidir. U o‘z xayoliy maqsadlariga erishish uchun boshqalarni manipulyatsiya qilib, Otelloni Dezdemona va boshqa qahramonlarga ishonchsizlikka undaydigan yovuzlik ramzi bo’lsa, Dezdemonaning Otello bilan nikohidan g‘azablangan, sababi undan qiziga zarar etkazilishidan xavotirda bo‘lgan obraz Brabansio edi.

Fojianing mohiyatida nima yotadi? Yagoning hiylasiga chuv tushgan Otello rafiqasi Dezdemonani bo‘g‘ib o‘ldirishi shunchaki haddan ziyod rashk va mulohaza qilmaslik natijasida ro‘y bergan, o‘zi kichik, ammo oqibati katta xato edimi? Fikrimcha, yo‘q. Dezdemonaning o‘limi shunchaki bir insonga bo‘lgan ishonchning emas, balki insoniyatga bo‘lgan ishonchning yo‘qotilishi natijasida sodir bo‘ldi.

Dezdemona:
Siz ham biroz rahm qiling? Axir hech qachon
Qittay bo‘lsin, qilganim yo‘q sizni haqorat
Kassioni sevar edim, osmon buyurgan
Hammaga xos sevgi bilan, sovg‘a bermadim.
Otello:
Ont ichaman, ro‘molchamni qo‘lida ko‘rdim
Yuragimni tosh qilding sen, qasamxo‘r xotin
Men qurbon deb bu qilmoqchi bo‘lganim ishni,
Sen qotil deb atamoqqa majbur qilasan.
Ro‘molchamni axir ko‘rdim!
Dezdemona:
Demak, topibdi.
Men ro‘molcha berganim yo‘q. Odam yuboring,
O‘zi kelib chinini aytsin.
Otello:
U aytib bo‘ldi.

Otello hayoti ustuni bo‘lgan qadriyatlarning eng asosiysi ishonchdan mosuvo bo‘lgach, o‘z oldida qotillik tarzidagi isyondan boshqa yo‘l ko‘rmadi. Yuzaki qaraganda, rashk tufayli sodir etilgan oddiy qotillik bo‘lib ko‘ringani bilan, bu fojiaviy harakat zamirida o‘z hayoti tizginini qo‘ldan boy bergan, munosabatlardagi muvozanatning yo‘qotilishiga duch kelgan qahramonning bu kabi tartibsizliklarga qarshi isyoni yotadi. Nafaqat insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, balki butun olam mavjudligining asosida tartib va qonun-qoidalar yotishini hisobga olib, muhabbatning ham o‘z qonunlari borligini anglab yetish mumkin. Albatta, Otello uchun vafodorlik – ilk qoida. Kishi xuddi Otelloga o‘xshab, kerak bo‘lsa, o‘zining butun boshli hayotini mana shunday qoida va qadriyatlarga teng ko‘rishi mumkin. Hayot ahamiyatini belgilab beruvchi ana shunday muqaddas qoidalar buzilganda inson chorasiz ahvolga tushib qoladi. Axir butun boshli hayotingiz muayyan bir qadriyatlar tizimiga asoslansa-yu, siz ularning toptalishiga duch kelsangiz, qanday qilib odatiy tarzda yashashda davom etishingiz mumkin? Bu ilojsiz tuyuladi. Otello ham qotillikdan boshqa iloj ko‘rmadi, ammo aslida ham u haq edimi? Barchamizga ma’lumki, yo‘q, Otello adashdi, uning soddaligidan foydalangan Yago o‘z manfaatlarini ko‘zlab, uni aldagan edi. Shekspir inson ruhiyatining nozik tomonlarini ochiqlar ekan, nafaqat ishonch va sadoqat eng muhim xislatlar ekanini, balki insonning ezgu xislatlarini (misol, soddaligi) uning o‘ziga qarshi ishlatish orqali uni batamom halokatga uchratishi mumkinligini ko‘rsatib berdi. Tragediya nafaqat sadoqat hamda vafo, balki ishonuvchanlik, aldov va qasos masalalarini ham birdek qamrab oladi. Bu yerdagi muammoni bir necha bosqichlarda kuzatib, tahlil etish mumkin. Inson ruhiyati bosqichida – kishi xarakterining nuqsonlarini; o‘zaro munosabatlar bosqichida – manfaatlar o‘rtasidagi kurashni; undan ham yirikroq bosqichda esa – jamiyat pok muhabbat va munosabatlar uchun xavfli makon

ekanligini kuzatar ekansiz, asar faqatgina Dezdemona yoki Otelloning emas, balki muhabbat hamda hayotga bo‘lgan ishonchning halokatiga ishora qilayotgandek tuyulaveradi.

Xulosa

Uilyam Shekspirning "Otello" asari, sevgi, ehtiros, xiyonat va rashk kabi insoniy his-tuyg‘ular va odamlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar haqida hikoya qiladi. Asardagi asosiy qahramon – Otello, o‘zining xayolini kutilmagan tarzda yo‘qotadi, Yago tomonidan yo‘naltirilgan fitna natijasida, xiyonat va adovatga duchor bo‘ladi. Kitobda bir tomondan, Yagoning riyokorligi va ziyon yetkazishga urinishlari, Otelloning xiyonatlar dashtiga tortilishi mavjud. Asar, shuningdek, xato, g‘azab va o‘z-o‘zini yo‘q qilish haqidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Otello o‘z sevgilisiga nisbatan qilgan xato va ishonchsizlik tufayli, o‘zini yo‘q qilishga olib keladi. "Otello" asari, inson tabiatining qiyin va murakkab tomonlarini, baxt, xiyonat va adolat haqida chuqur mulohazalar bilan yoritadi. Taqdir va omad ortidagi besh, o‘n marta qaytalangan g‘am-g‘ussalar, albatta, insonning halokatli xatolarini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Uilyam Shekspir. Otello. Tanlangan asarlar. - Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1998.
2. Shekspir, Uilyam. Tanlangan asarlar. Jamol Kamol tarjimasi. - Toshkent: “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1991.
3. Sulaymonova F. Shekspir O‘zbekistonda. - Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1978.
4. Niyozmetov M. "Jahon adabiyoti tarixi". - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.
5. Aliev A. "Shekspir va uning asarlari". - Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
6. Bloom H. "William Shakespeare’s Othello". - New York: Chelsea House Publishers, 1987.